



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 30.04.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

FRANS PETER SHUBERTNING QO'SHIQCHILIK LIRIKASI

Egamberdiyeva Umidaxon

Andijon davlat universiteti "Sport va San'at" fakulteti Xalq cholg'u ijrochiligi 1-kurs talabasi
Uzbekistan
adu@edu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX romantik musiqa san'atining yirik vakili Frans Peter Shubertning qo'shiqchilik lirikasi, ya'ni Lied janridagi ijodi har tomonlama tahlil etilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda bastakorning Lied janriga oid asarlari poetik matn va musiqiy tuzilma o'zaro munosabatlarni nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, Frans Peter Shubertning fortepiano partiyasiga bergan sematik yuklamasi, vokal ifoda bilan musiqaviy dramaturgiyadagi uyg'unlik, tonal va tematik kontrastlar orqali yaratgan musiqiy semiosferasi atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: lied janri, lirik subyektivlik, musiqa va poeziya uyg'unligi, musiqiy dramaturgiya, musiqiy kompozitsiya.

Аннотация: В статье всесторонне анализируется творчество Франца Петера Шуберта, крупнейшего представителя романтической музыки XIX века, в жанре вокальной лирики — Lied. В исследовании также рассматриваются произведения композитора в жанре Lied с точки зрения взаимосвязи поэтического текста и музыкальной структуры. В частности, подробно анализируется смысловая нагрузка, которую Франц Петер Шуберт придавал партии фортепиано, гармония

вокального выражения с музыкальной драматургией, а также музыкальная семиосфера, созданная им посредством тональных и тематических контрастов.

Ключевые слова: жанр песни, лирическая субъективность, гармония музыки и поэзии, музыкальная драматургия, музыкальная композиция.

Abstract: This article comprehensively analyzes the work of Franz Peter Schubert, a major representative of the 19th century romantic music, in the genre of singing lyricism, that is, the Lied genre. Also, the research examines the composer's works in the Lied genre from the perspective of the relationship between poetic text and musical structure. In particular, Franz Peter Schubert's semantic load on the piano part, the harmony of vocal expression with musical dramaturgy, and the musical semiosphere created through tonal and thematic contrasts are analyzed in detail.

Keywords: lied genre, lyrical subjectivity, harmony of music and poetry, musical dramaturgy, musical composition.

Language: Uzbek

Citation: Egamberdiyeva , U. (2025). SINGING LYRICS BY FRANZ PETER SCHUBERT. Universal International Scientific Journal, 2(4), 242–245. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1731>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15340149>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Romantizim davrining eng yetuk namoyandalaridan biri Frans Peter Shubert Avstriyalik kompozitorlardan bo`lib, 1797-1828 yillarda yashab ijod qilgan. Shubert klassik va romantik davr oralig`ida ijod qilgan, o`zining emotsional boyligi, poetik sezgirligi va musiqiy obraz yaratish mahorati bilan ajralib turadigan bastakorlardan biridir. Uning ijodi ayniqsa vokal kamer musiqasi, xususan, Lied (san`atli nemis qo`shig`i) janrida mislsiz yuksakliklarga erishdi. Shubertning Lied janridagi asarlari nafaqat musiqaviy jihatdan, balki adabiy va estetik qimmat

jihatidan ham nemis romantizmi ruhini to`liq aks ettiradi. Qo`shiqchilik lirikasi – vokal san`atining yuksak shakli bo`lib, u musiqaning emotsional imkoniyatlari va poeziyaning ma`naviy-estetik mazmuni uyg`unlashgan badiiy holati hisoblanadi. Qo`shiqchilik lirikasi nafaqat kuy lash san`ati, balki inson ruhiyatining musiqiy tilda ifodasi, she`r va musiqaning ijodiy sintetik uyg`unligi, dramatik va psixologik kechinmalarning badiiy aksidir. Shubert qo`shiqchilik lirikasi sohasida ikkita muhim yangilik kiritdi: Birinchisi – fortepianoning mustaqil dramatik obrazga aylanishi, Ikkinchisi esa – vokal ifoda orqali lirik subyektivlikni kuchli tarzda

ifodalash. U vokal va fortepiano orasida badiiy dialog yaratdi: fortepiano partiyasi matn mazmunini sharhlab berdi, hissiy fon yaratdi, obrazlarni jonlantirdi. Natijada uning qo`shiqlari oddiy ashulalardan farqli ravishda, psixologik musiqiy sahnalarga aylandi. Uning ilgari surgan yondashuvi orqali musiqiy kompozitsiya faqatgina go`zal ohanglar majmui emas, balki inson qalbining ichki kechinmalari, ruhiy murakkabliklari, psixologik va falsafiy izlanishlari ifodasiga aylandi.

Frans Peter Shubert ijodida insoniy tuyg`ular, shaxsiy kechinmalar va romantik dunyoqarash markaziy o`rinda turadi. Uning har bir qo`shig`i – nafaqat musiqa, balki filosofik-fikriy mazmunga ega badiiy musiqiy obrazdir. U romantizmning quyidagi asosiy estetik tamoyillarini Lied janrida mujassamlashtirgan: Ichki dunyoni aks ettirish – inson qalbi, orzulari, tushkunliklari, yolg`izligi musiqada lirik obrazlar orqali ifodalanadi. Tabiat bilan ruhiy uyg`unlik – daryo, shamol, qish, oy kabi tabiat obrazlari musiqiy fon emas, balki qahramonning ruhiy holatiga to`g`ridan-to`g`ri bog`liq. Yolg`izlik va begonalik – Shubert qo`shiqlarida jamiyatdan begonalashgan individuallik asosiy mavzulardan biridir. O`lim va yashash oralig`idagi falsafa – ko`plab qo`shiqlarda yashash ma`nosi, vaqt, o`tkinchilik, umidsizlik falsafiy tarzda yoritiladi. Shubertning qo`shiq yaratish uslubi nihoyatda murakkab va mukammal darajada rejalashtirilgan. Shu bilan birga Shubert har bir qo`shiqlarida ichki dramaturgiya mavjud: Kiruvchi

ekspozitsiya – holat yoki muhitni tasvirlaydi. Konflikt (dramatik keskinlik) – emotsional iztiroblar yuzaga chiqadi. Klimaks (Yuqori nuqta) - his-tuyg`ular kuchayadi. Rezolutsiya yoki ochiq yakun - obraz taqdiri noaniq qoladi yoki murosaga kelinadi. Bu yondashuv Shubert qo`shiqlarni oddiy aytiladigan ashula emas, balki musiqiy drama sifatida idrok etishga olib keladi.

Frans Peter Shubertning qo`shiqchilik lirikasi hozirgi zamon musiqasiga katta ta`sir ko`rsatgan. Shubertning qo`shiqchilik lirikasi bugungi kunda turli shakllarda davom etayotgan musiqiy jarayonlarning rivojlanishiga o`z hissasini qo`shgan. Ayniqsa, Shubertning qo`shiqchilik lirikasi bugungi musiqaning estetik jihatiga katta ta`sir ko`rsatdi. Uning qo`shiqlardagi nafaqat melodik tuzilish, balki rimoz va aks ettirilgan tuyg`ular ham hozirgi musiqachilarning yaratgan asarlarida aks etmoqda. Shubert melodik strukturalarini, musiqiy simbolizmini va ichki psixologik tartibini o`z musiqalariga jalb qilmoqda. Bu Shubert musiqasining zamonaviy tarzda yaratilishida ham qanday katta o`rin tutishini ko`rsatadi.

Xulosa

Shubert qo`shiqchilik lirikasi orqali individual hissiyotlar va shaxsiy tajribalarni ifodalashni, balki insoniyatning umumiy ruhiyatini, kayfiyatini, orzularini va umidsizliklarini ham musiqaga kiritdi. Shubertning qo`shiqchilik lirikasi bugungi kunda nafaqat musiqiy pedagogikada, balki san`atning boshqa sohalarida ham o`rganiladi va yuksak baholanadi. U vokal

san`atining yangi istiqbollarini ochdi va o`zining melodik, garmonik, ifodalash uslubi orqali kelajakdagi , musiqiy kompozitorlarga katta ilhom berdi. Bugungi kunda Shubertning qo`shiqchilik lirikasi shu bilan birga klassik musiqaning eng muhim asarlari sifatida qaraladi, balki

zamonaviy musiqiy ta`lim va pedagogikada ham katta ahamiyatga ega. Uning qo`shiqchilik musiqiy ijodiyotni o`rgatishda, vokal texnikaning rivojlanishida va musiqaning ichki ifodasi, drammatizmini o`rganishda eng samarali manbaalardan biri sifatida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaw, M. The Lieder of Franz Schubert. Cambridge University Press. 2000.
2. Swayne, N.P. The Songs Schubert: Analysis and Interpretation. Oxford University Press, 2002.
3. Levy, Barry. Schuberts Songs. Oxford University Press, 2004.
4. Zerlin, Michael. Schuberts Vocal Music: A Comprehensive Guide. Cambridge University Press, 2013.
5. <https://www.oxfordmusiconline.com/>
6. <http://www.schubert.org/>
7. <https://www.naxos.com/>
8. <https://www.allmusic.com/>